



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

INTONATSION KONTURLARNING EMOTIONAL-EKSPRESSIV QATLAMI: KINOYA VA SHUBHA PRAGMATIK TAHLILI

Abduqaxarov Qobiljon Abduqodir o'g'li
O'zbekiston Milliy universiteti, tayanch doktorant

Annotatsiya

Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillari badiiy hamda kinodiskursida intonatsion konturlarning emotsional-ekspressiv qatlami qiyosiy-kontrastiv tahlil qilingan. Tadqiqotda kinoya, kesatiq va sarkazm kabi nutqiy aktlarning reallashuvida prosodik vositalar — ohang yo'nalishi, mantiqiy urg'u, emfatik pauza va cho'ziqlikning pragmatik funksiyalari o'rganilgan. Ikki til materiallari asosida ingliz tilidagi kinoya ko'proq ohangni bosish va vazminlik (deadpan) tamoyiliga tayanishi, o'zbek tilida esa aksincha, ohang diapazonining kengayishi, modal yuklamalar hamda nafaqat unlilar, balki undosh tovushlarning ham emfatik cho'zilishi (geminatsiyasi) orqali ifodalanishi isbotlangan. Olingan natijalar qiyosiy tilshunoslik va fonopragmatika sohalari uchun muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: fonopragmatika, intonatsion kontur, kinodiskurs, sarkazm, kinoya, ohang diapazoni, yadroviy urg'u, emfatik cho'ziqlik, geminatsiya, implitsit mazmun.

ЭМОЦИОНАЛЬНО-ЭКСПРЕССИВНЫЙ СЛОЙ ИНТОНАЦИОННЫХ КОНТУРОВ: ПРАГМАТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ИРОНИИ И СОМНЕНИЯ

Абдукахаров Кобилжон Абдукодир угли
Национальный университет Узбекистана, базовый докторант

Аннотация

В данной статье представлен сравнительно-сопоставительный анализ эмоционально-экспрессивного слоя интонационных контуров в английском и узбекском художественном и кинодискурсе. В исследовании изучаются прагматические функции просодических средств — направления тона, логического ударения, эмфатической паузы и долготы — при реализации таких речевых актов, как ирония, сарказм и насмешка. На основе фактического материала доказано, что если в английском языке ирония преимущественно опирается на подавление тона и сдержанность (deadpan expression), то в узбекском языке сарказм выражается через расширение диапазона тона, модальные частицы, а также эмфатическое удлинение не только гласных, но и согласных звуков (геминацию). Полученные результаты имеют важное научное значение для сравнительного языкознания и фонопрагматики.

Ключевые слова: фонопрагматика, интонационный контур, кинодискурс, сарказм, ирония, диапазон тона, ядерное ударение, эмфатическая долгота, геминация, имплицитный смысл.

EMOTIONAL-EXPRESSIVE LAYER OF INTONATION CONTOURS: A PRAGMATIC ANALYSIS OF IRONY AND DOUBT

Abduqaxarov Qobiljon Abduqodir o'g'li
National University of Uzbekistan, Doctoral student

Abstract

This article presents a comparative-contrastive analysis of the emotional-expressive layer of intonation contours within English and Uzbek literary and cinematic discourse. The study examines the pragmatic functions of prosodic features—such as pitch direction, logical stress, emphatic pauses, and elongation—in rendering speech acts of irony, sarcasm, and mock praise. Based on the analyzed cinematic data, it is demonstrated that while English irony predominantly relies on tone suppression and understatement (deadpan expression), Uzbek sarcasm utilizes pitch range expansion, modal particles, and emphatic elongation of both vowels and consonants (geminatio). The findings offer significant insights into the fields of contrastive linguistics and phonopragmatics.

Keywords: phonopragmatics, intonation contour, cinematic discourse, sarcasm, irony, pitch range, nuclear stress, emphatic elongation, gemination, implicit meaning.

Badiiy diskursda fonopragmatik vositalarning eng murakkab funksiyalaridan biri lisoniy

birlikning yuzaki ma'nosi va uning yashirin, ya'ni implitsit mazmuni o'rtasidagi intonatsion konversiyani yuzaga keltirishdir. Kinoya va sarkazm nutqiy aktlari aynan fonetik ko'rsatkichlar orqali reallashadi, chunki bu vaziyatda ohang gapning lug'aviy ma'nosidan ustun turuvchi "pragmatik filtr" vazifasini bajaradi. Ushbu tadqiqotda ingliz va o'zbek kinodiskurslarida qahramonlar o'z munosabatini (*attitude*) "piching", "kesatig" yoki "sarkazm" shaklida ifodalashda qaysi prosodik modellarga tayanishini qiyosiy-kontrastiv tahlil qilamiz. Ingliz tilida sarkazm ko'pincha intonatsion monotonlik (*deadpan expression*) yoki teskari ton harakati bilan xarakterlansa, o'zbek tilida bu jarayon prolongatsiya, ya'ni tovushlarni cho'zish, undoshlar geminatsiyasi va ohang diapazonining keskin kengayishi orqali namoyon bo'ladi [5; 45-b.; 6; 485-b.].

Tadqiqotda lingvopragmatik, kontekstual va qiyosiy-kontrastiv tahlil metodlaridan foydalanildi. Kuzatish obyekti sifatida ingliz tilidagi *The Devil Wears Prada*, *Freedom Writers* hamda o'zbek tilidagi *O'tkan kunlar*, *Mahallada duv-duv gap* badiiy filmlaridagi lingvistik va ekstralingvistik vaziyatlar tanlab olindi. Kinodiskursda kinoya (*irony*) va sarkazmning yuzaga chiqishida matn strukturasidan ko'ra aynan prosodik vositalar — ohang yo'nalishi, emfatik pauza va mantiqiy urg'u markerlarining roli eksperimental-kuzatuv uslubida tahlil qilindi.

Vaziyat tahlili: *The Devil Wears Prada* badiiy filmi (0:25:25). Miranda Prisli yordamchisining "I am still learning about this stuff" deya moda olamiga bepisand munosabatiga nisbatan "This ... stuff ...? Oh. Ok. I see. You think this has nothing to do with you" deb munosabat bildiradi.

Pragmatik ambivalentlik: mazkur nutqiy aktda Miranda o'zining "I see" ("Tushunaman") va "You think..." jumalari orqali tinglovchini tushunayotganini emas, balki uning dunyoqarashi naqadar tor ekanligini piching, ya'ni sarkazm orqali ifodalamoqda. So'zning leksik ma'nosi va pragmatik niyat o'rtasida inversiya mavjud.

Prosodik ko'rsatkichlar: Miranda ushbu gapni o'ta sovuqqonlik bilan, pastga tushuvchi (*low fall*) ohangda talaffuz qiladi. S. Attardo ta'kidlaganidek, kinoyali nutqda ovozning tekis (*deadpan*) bo'lishi pichingning ta'sirchanligini oshiradi [1; 801-b.].

Pauza va urg'u: "Oh. Ok" jumalaridan keyingi qisqa pauza va "you" ("sen") so'ziga berilgan alohida urg'u so'zlovchining intellektual ustunligini namoyon etadi. Buni P. Brown va S. Levinsonning ijtimoiy o'zgaruvchilar — kuch (*P — Power*) va ijtimoiy masofa (*D — Distance*) tushunchalari bilan asoslash mumkin [4; 74-b.].

Vaziyat tahlili: *Freedom Writers* filmi (0:17:25). Scott o'zining hozirgi kompyuter bo'limidagi ishi haqida gapirganda, qaynotasi uning mutaxassisligi boshqa ekanligiga ishora qilib: "I thought you were an architect" ("Men seni me'mor deb o'ylagan edim") deb piching qiladi.

Pragmatik ambivalentlik: qaynotasining ushbu jumlasini grammatik jihatdan oddiy darak gap bo'lsa-da, pragmatik nuqtayi nazardan sarkazm vazifasini bajaradi. U Scottning pastroq darajadagi ishini uning oliy ma'lumoti, ya'ni me'morlik kasbi bilan qiyoslash orqali uning muvaffaqiyatsizligiga yashirincha ishora qilmoqda. P. Brown va S. Levinson nazariyasiga ko'ra, bu yerda so'zlovchi tinglovchining "yuziga" (*face threat*) nisbatan yashirin hujum, ya'ni *off-record strategy: be ironic* usulini qo'llamoqda [4; 211-b.].

Prosodik ko'rsatkichlar: mazkur gapda mantiqiy urg'u "architect" leksemasiga tushadi. D. Bolinger ta'kidlaganidek, bunday "nuclear stress" ("yadroviy urg'u") gapning pragmatik markazini kutilgan, ya'ni ideal va mavjud, ya'ni real vaziyat o'rtasidagi zidlovga yo'naltiradi [2; 342-b.]. Qahramon ushbu gapni ko'tarilib-tushuvchi (*rise-fall*) ohangda talaffuz qiladi. P. Roach nazariyasiga asosan, ingliz tili fonopragmatikasida bunday ohang chizig'i so'zlovchining gapiga "hayrat" niqobi ostidagi istehzo va kamsitish ma'nosini yuklaydi [7; 158–164-b.].

Vaziyat tahlili: *Freedom Writers* filmida Erin o'quvchisi Gloriyadan doskadagi gapni o'qishni so'raydi. Gloria norozilik bilan "Why me?" deganda, Erin unga: "Because I know how much you love to read" ("Chunki o'qishni qanchalik sevishingni bilaman") deb javob qaytaradi.

Pragmatik ambivalentlik: Gloriyaning savoli ma'lumot olishga emas, balki e'tiroz (*objection*) bildirishga yo'naltirilgan. Erinning javobi esa shaklan iltifot bo'lsa-da, mazmunan antifrazis, ya'ni so'zning teskari ma'noda qo'llanilishi usulidagi sarkazmdir.

Prosodik ko'rsatkichlar: Gloria ushbu qisqa so'roq gapni keskin ko'tariluvchi ohangda (*High Rise*) talaffuz qiladi va bu gapga "shikoyat" (*complaint*) ohangini yuklaydi. Erin esa o'z javobida "love" fe'liga alohida yadroviy urg'u beradi. Bu o'rinda "Intonation of Contrast" ("zidlovchi ohang") hodisasi kuzatiladi: so'zlovchi o'quvchining o'qishni yomon ko'rishini bilsa-da, ohang orqali "sevish" so'zini ta'kidlab, ziddiyatni piching bilan ko'rsatadi [4; 222-b.].

O'zbek badiiy diskursida fonopragmatik modellarning milliy-madaniy xususiyatlari

Ingliz kinodiskursida kuzatilgan ushbu ijtimoiy-professional piching modeli o'zbek badiiy diskursida o'ziga xos milliy-madaniy bo'yoqlar bilan namoyon bo'ladi.

Vaziyat tahlili: *O'tkan kunlar* filmidagi Homid va Otabek muloqoti (0:02:40). Homid aholining xonga yozadigan shikoyatnomalari haqida so'raganda, Otabek amaldorlarning e'tiborsizligidan ranjib: "E, nechanchi shikoyatnomani so'raysiz? O'nlab shikoyatnoma yuborgandirmiz", deb kesatq qiladi.

Pragmatik tahlil: Otabekning javobi shaklan so'roq gap bo'lsa-da, pragmatik jihatdan kesatq vazifasini bajaradi. So'zlovchi qilingan harakatlarning samarasizligiga nisbatan o'zining achchiq munosabatini ohang orqali ifodalaydi.

Prosodik ko'rsatkichlar: Otabek nutqini "E..." undovi bilan boshlaydi va undagi unli tovushni atayin cho'zadi (*elongation*). Bu o'zbek tili fonopragmatikasida bepisandlik va kesatq ma'nosini yuklovchi asosiy milliy vositalardan biridir. "Nechanchi" so'zida ohangning keskin ko'tarilishi va gap oxirida pasayishi (*Rise-Fall*) so'zlovchining sarkastik munosabatini bildiradi.

Vaziyat tahlili: *Mahallada duv-duv gap* badiiy filmi (0:01:48). Umidaning dugonasi hayrat va piching aralash: "Umidaning oshig'ing olchi, shunday yigitni shaydo qilsa-ya?" deydi. Umida zarda bilan: "Umaringizni boshimga uramanmi?" deb javob beradi.

Pragmatik tahlil: Mazkur muloqotda o'zbek tili fonopragmatikasiga xos bo'lgan "zaharli piching" modeli namoyon bo'ladi.

Prosodik ko'rsatkichlar: Dugonasining nutqidagi "shaydo qilsa-ya?" jumlasida oxiridagi -ya yuklamasi o'ta yuqori ko'tariluvchi ohangda (*high rise*) talaffuz qilinadi. Bu shaklan hayrat bo'lsa-da, mazmunan hasad va pichingni ifodalovchi asosiy prosodik markerdir. Umidaning javobida esa "sh" undoshining odatdagidan bir necha barobar cho'ziq, ya'ni geminatsiyali talaffuz qilinishi ("bosh-sh-shimga") kuzatiladi. O'zbek tili fonopragmatikasida bunday undosh cho'zilishi so'zlovchining kuchli zardasi va vaziyatni inkor etayotganini ifodalovchi o'ziga xos ekspressiv vosita hisoblanadi.

Ingliz tilidagi sovuqqon va qisqa (*staccato*) kinoyadan farqli o'laroq, o'zbek tilidagi sarkazmda emotsional to'yinganlik, unli va undosh tovushlarning cho'zilishi hamda ohang diapazonining kengligi (*pitch range*) yetakchilik qiladi. Ingliz tilida piching ko'pincha ohang diapazonini toraytirish (*low pitch*) orqali berilsa, o'zbek tilida, aksincha, ohang diapazonini kengaytirish, modal yuklamalar va unli larni cho'zish orqali ifodalanishi isbotlandi. Shuningdek, ingliz tili pichingida unli tovushlar ma'lum darajada cho'zilishi (*elongation*) mumkin bo'lsa-da, o'zbek tilida kesatqni kuchaytirish uchun nafaqat unli lilar, balki undosh tovushlarning ham emfatik cho'zilishi (*geminatsiyasi*) asosiy pragmatik vosita bo'lib xizmat qiladi (masalan, "bosh-sh-shimga"). Ingliz va o'zbek tillari o'rtasidagi bunday prosodik tafovut tilshunoslikdagi universal qonuniyatlar bilan izohlanadi. A. Cruttenden ta'kidlaganidek, ohang diapazonining kengayishi va emotsional cho'ziqlik ko'pincha so'zlovchining subyektiv munosabati yuqori bo'lgan tillar yoki nutqiy vaziyatlar uchun xosdir [3; 160-b.].

Xulosa (Conclusion). Olib borilgan fonopragmatik tahlillar shuni ko'rsatadiki, badiiy diskursda kinoya va sarkazm faqatgina semantik yoki leksik sathda emas, balki intonatsion konturlarning konversiyasi asosida shakllanadi. Ingliz tilida kinematografik nutq vazmin ton harakatlariga (*low fall, deadpan*) asoslansa, o'zbek tilida bu jarayon nutqning emotsional dinamikasi — emfatik unli va undosh cho'zilishi hamda keng diapazonli *Rise-Fall* ohang modifikatsiyalari orqali xarakterlanadi. Ushbu qonuniyatlarni bilish qiyosiy tilshunoslik, tarjima nazorati va nutqiy ta'sir mexanizmlarini o'rganishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Attardo S. Irony as Relevant Inappropriateness // Journal of Pragmatics. — 2000. — № 32. — P. 793–826.
2. Bolinger D. Intonation and Its Uses: Melody in Grammar and Discourse. — Stanford: Stanford University Press, 1989. — 412 p.
3. Brown P., Levinson S.C. Politeness: Some Universals in Language Usage. — Cambridge: Cambridge University Press, 1987. — 345 p.
4. Cruttenden A. Intonation. — Cambridge: Cambridge University Press, 1997. — 201 p.
5. Ibragimova E. O'zbek tilida kinoya va kesatq ma'nolarini ifodalashning usul va vositalari: filol. fan. nomz. ... diss. — Farg'ona, 2001. — 120 b.
6. Rockwell P. Lower, Flatter, Slower: Pitch Height and Range as Indicators of Sarcasm // Journal of Psycholinguistic Research. — 2000. — № 29. — P. 485–503.
7. Roach P. English Phonetics and Phonology: A Practical Course. — Cambridge: Cambridge University Press, 2009. — 250 p.